

**Xalqaro Nordik universiteti “Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti” da o’tkazilgan  
“Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida sport haftaligi**

Alimuxametov Usmonjon Azimjonovich

Xalqaro Nordik Universiteti

Tyutor tarbiyachi

u.alimuxametov@nordicuniversity.org

+998950777050

**BAYONNOMASI**

19.09.2024 yil

No\_\_\_\_\_

Toshkent sh.

**Qatnashdilar:**

**Z. Uralbayev** – Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti

dekani muovini

**X. Mamajonova** – Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti

dekani muovini

va Xalqaro Nordik universitetining talabalar; va

**tyutorlar.**

2024-yilning 19-sentabridan boshlab Xalqaro Nordik universitetida “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida sport haftaligi o’tkazilmoqda. Tadbir “Biz bir bo’lsak - yagona xalqmiz, birlashsak - yagona Vatanmiz!” shiori ostida tashkil etilgan bo’lib, uning asosiy maqsadi talabalar, o’qituvchilar va xodimlar o’rtasida sog’lom turmush tarzini keng ommalashtirish, jismoniy faoliyikni qo’llab-quvvatlash va jamoaviy ruhni yuksaltirishdir.



Sport haftaligi davomida shaxmat-shashka va stol tennisi kabi o’yinlar bo‘yicha musobaqalar tashkil etildi. Ushbu sport turlari nafaqat qatnashchilarga intellektual va jismoniy mahoratlarini sinash imkoniyatini yaratdi, balki universitet jamoasi o’rtasida do’stona raqobatni ham rivojlantirdi. Shaxmat-shashka musobaqalari, ayniqsa, miyani mashq qilishni sevuvchi talabalar va o’qituvchilar orasida katta qiziqish uyg’otdi. Stol tennisi esa harakatga tayyor, tezkor qarorlar qabul qilishni mahoratiga ega bo’lgan ishtirokchilarni birlashtirdi.

Tadbirda qatnashgan barcha ishtirokchilar uchun belgilangan bo'sh vaqtlar mazmunli o'tkazildi. Musobaqalar faqatgina sport bilan cheklanib qolmay, ular talaba-yoshlar va o'qituvchi-xodimlarning bir-biriga yaqinlashishiga, jamoaviy ruhni mustahkamlashga yordam berdi. Haftalik davomida o'tkazilgan sport bellashuvlarining natijalariga ko'ra, g'oliblar taqdirlandi. Taqdirlash marosimida g'oliblar ga sovg'alar va diplomlar topshirildi, bu esa ishtirokchilarga yanada ko'proq rag'bat bag'ishladи.

Sport haftaligi davomida tashkil etilgan tadbirlar nafaqat jismoniy faoliytni oshirishga, balki universitet jamoasini birlashtirishga, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga katta yordam berdi. Shuningdek, sport musobaqalarida ishtirok etish orqali, talaba va o'qituvchilar o'z vaqtlanini samarali va mazmunli o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lishdi.

Tadbirning yakuniy natijalariga ko'ra, universitet jamoasida jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan qiziqish yanada ortdi. "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida o'tkazilgan sport haftaligi universitetda jismoniy faoliytni keng targ'ib qilish, sog'lom turmush tarzini ommalashtirish va birlashgan, mustahkam jamoa tuzishga xizmat qilmoqda.